

УДК 159.9

*Jurayev Xaydarjon Odilboyevich**University of business and science Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi*ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-2585-8439>e-mail: haydarbekjurayev@gmail.com**DEVIANT XATTI XARAKATLARINING NAMOYON BO'LIHIDA XARAKTER
AKSENTUATSIYASINI O'RNI**

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyatda ishtimoiylashuv jarayonida shaxslararo munosabatlarda shaxsda yuzaga keladigan deviant xatti xarakatlarning namoyon bo'lishda o'smirlar xulq-atvorida deviant xatti xarakatlarning namoyon bo'lishida shaxsda xarakter aksentuatsiyasini psixologik ta'sirlari nazariy va amaliy jixatdan yoritilgan.

Tayanch iboralar: SHaxs va deviant xulq - atvor, xarakter aksentuatsiyasi, shizoidniy tip, psixopatiya, addeksiya, inqiroz, submadaniyat, o'smirlik davrida emansipatsiya jarayonlari.

Аннотация: В данной статье рассматривается теоретический и практический характер психологических последствий акцентуации характера у индивида проявлении отклоняющихся расстройств поведения, в поведении подростков, проявлении отклоняющихся расстройств поведения межличностных отношениях, в процессе социализации обществе.

Ключевые слова: Личность и девиантное поведение, акцентуация характера, шизоидный тип, психопатия, аддекция, кризис, субкультура, процессы эмансипации в подростковом возрасте.

Abstract: This article examines the theoretical and practical nature of the psychological consequences of character accentuation in an individual, the manifestation of deviant behavior disorders, in adolescent behavior, the manifestation of deviant behavior disorders in interpersonal relationships, in the process of socialization in society.

Keywords: Personality and deviant behavior, character accentuation, schizoid type, psychopathy, addiction, crisis, subculture, processes of emancipation in adolescence.

KIRISH

Ma'lumki, kishining deviant axloqini jamiyatda qabul qilingan me'yorlarga zidligi va ruhiy jarayonlarining muvozanatsizligi, moslashuvchan emasligi ko'rinishida yoki uning shaxsiy axloqi ustidan axloqiy va estetik nazoratdan bo'yin tovlash ko'rinishidagi o'zini faollashtirish jarayonining buzilishida namoyon bo'luvchi alohida qilmishlar yoki qilmishlar tizimi sifatida belgilash mumkin.

Normal va uyg'un axloq shakllarini ruhiyat bilan bog'liq uch darajada ifodalash mumkin:

- ruhiy jarayonlarning muvozanati ko'rinishidagi mizoj xususiyatlari;
- moslashuvchanlik va o'zini faollashtirish ko'rinishidagi xos xususiyatlar;
- kishining ma'naviyati, masuliyati va vijdonliligi ko'rinishidagi shaxsiylik.

Og'uvchi xulq (deviant, lot. deviatio – og'ish) deb, kishining qilmishlari, faoliyati turi odatiy, umum e'tirof etilgan me'yorlardan farq qiladigan yoki u o'zi a'zosi bo'lgan jamiyat tomonidan qabul qilingan me'yorlarga mos kelmay, barqaror ravishda ularning ijtimoiy me'yorlaridan og'ishida namoyon bo'ladigan axloqqa aytiladi.

ASOSIY QISM

Demak, deviant xulqli shaxs deb, birinchi navbatda, axloqiy jihatdan qarindosh-urug'lari va do'stlarining ko'nglini og'ritadigan va atrofdagilarning hayoti uchun xavf tug'diradigan shaxslarga (individlarga) aytiladi. Katta yoshdagi individ avval boshdanoq ichki maqsadga intilish kuchiga ega bo'lib, shunga ko'ra, faolligining barcha ko'rinishlari yuzaga chiqadi. Borliqning shaxsning dunyoqarashiga zid bo'lgan ijtimoiy me'yorlariga qarshilik ko'rsatishi kriminal va delinkvent xulq-atvorda uchraydi. Borliqning qarshilik ko'rsatishi, uni o'zlashtirish va tushunishning subyektiv ravishda buzib ko'rsatilishi sabablari, tevarak olam tomonidan dushmanlarcha qabul qilinadigan ruhiy nuqson alomatlari va ruhiy-patologik buzilishlar bilan bog'liq. Ruhiy kasallik alomatlari atrofdagilarning qilmishlari sabablarini bir xil baholash imkoniyatini izdan chiqaradi, buning oqibatida muhit bilan o'zaro samarali munosabatlar qiyinlashadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'smirlik davrida yuzaga keladigan xulqi og'ishganlik jixatlari va tarbiyaning psixologik xususiyatlarining namoyon bo'lishi haqidagi nazariy manbalarning o'rganish bo'yicha quyidagi adabiyotlar tahlil qilindi, Дубровина, И. (2017). Психологическая служба в современном образовании: Как ее понимать? Как ее структурировать?: Как ею управлять? Как ее осуществлять? Рабочая книга. Питер., Личко, А. Е. (1983). Психопатии и акцентуации характера у подростков., Божович, Л. И. (1979). Этапы формирования личности в онтогенезе. Вопросы психологии, 4, 23-24\, Do'stmuxamedova Sh, A., Qiziqish muammosi psixologik nuqtayi nazardan Ya.A. Ribnikov, N.F.Dobrinin, N.D.Levitov, M.F. Belyayev, L.A.Gordon, L.I.Bojovich, N.G.Morozova, M.G.Davletshin, M.V.Vohidov, V.A.Toka reva, E.G'.G'oziyev va boshqalarning nazariy metodologik xususiyatga ega bo'lgan asarlarida hamda maxsus eksperimental tadqiqotlarida rivojlantirildi.


Ushbu adabiyotlarni o'rganish davomida quyidagi nazariy manbalarga ega bo'ldik, yani o'smir o'zini tanqid qilish bilan eng xarakterlidir, bu muloqotdagi qiyinchiliklar bilan bog'liq kattalar bilan va odamlar tomonidan, bu erda refleksiv tahlil aniqlash va muammoni xal qilishga yordam beradi va muloqot va o'z-o'zini rivojlantirishga xalaqit beradigan salbiy xususiyatlar ongli tarzda idrok etiladi. Borliqni negativ va oppozitsion baholaydigan kishilar borliq bilan o'zaro munosabatda o'zini unga moslashishga layoqatsiz deb hisoblab, ongli yoki ongsiz ravishda tanlaydilar. Deviantlik, og'ishgan xulq psixologlar, shifokorlar, pedagoglar, huquqni ximoyalovchi organlar xodimlari, sotsiologlar, faylasuflarda jonli qiziqish uyg'otib kelgan.

Og'ishgan xulq mavzusi sohalararo va munozarali xarakterga ega. Atamaning "ijtimoiy me'yor" tushunchasi bilan bog'liqligi muammoni ko'p marotaba murakkablashtiradi, chunki

me'yorning chegaralari o'ta shartli, insonda esa barcha ko'rsatkichlar bo'yicha absolyut me'yorning o'zi mavjud emas o'smirlar 14 yoshda o'smir ayrim jinoiy ishlar bo'yicha javobgarlikka tortilsa, (odam o'ldirish, o'g'rilik, tajovus ko'rsatish va h.k.) 16 yoshda - barcha jinoyat ishlar bo'yicha jinoiy javobgarlikka tortiladi.

NATIJALAR TAXLILI

V.A.Petrovskiyning fikricha, bu o'ziga xos muvofiqlik postulati (isbotsiz qabul qilinadigan qoida)da ifodalanadi. Bu o'rinda har qanday ruhiy jarayonlar va xulqiy xatti-harakatlarning boshlang'ich moslashuv yo'nalishi haqida so'z yuritil- moqda. Muvofiqlik postulatlarini uch turga ajratiladi: gomeostatik, gedonik (huzur-halovatga intilish insonga xos xislat deb hisoblovchi axloqiy ta'limot), pragmatik.



Delinkvent axloq – ushbu jamiyatda va ayni vaqtda o'rnatilgan huquqiy me'yorlardan og'ishgan, jamoatchilik tartibiga xavf soluvchi muayyan shaxs harakati¹.

Delinkvent shaxs – keskin og'uvchi axloqqa ega bo'lgan jinoiy jazoga mos harakatlarni namoyon qiluvchi subyekt.

B.V.Zeygar- nikning nazariy qoidalari va shaxsiy empirik tadqiqot materiallaridan foydalangan holda, YU.M.Antonyan va V.V.Guldan jinoyat motivlari tasnifini ishlab chiqdilar, bunda shaxs yoki faoliyatning ma'lum bir patologiyasi ularning shakllanish shart-sharoiti sifatida namoyon bo'ladi.

Affektogen motivlar ko'proq psixopatik anomaliyali huquqbu- zarlarda kuzatiladi. Bu mazkur jinoyatchilarning hissiy ta'sirchan- ligining o'ziga xosligi, yuqori qo'zg'aluvchanligi, ularni yumshatish ko'pincha shafqatsizlik, tajovuzkorlik, jaholat bilan ajralib turuvchi harakatlarga olib keluvchi affektiv tashvishlarning tiqilib qolishi bilan asoslanadi. Bunday harakatlarni sodir etish imkoniyati yo'qligini his qilgan holda, xafa qilgan shaxsga nisbatan zudlik bilan qarshi harakatlar zarurligini subyektiv ravishda sezish affektiv reaksiya yuzaga kelishining zaruriy sharti hisoblanadi.

Vaziyatli-impulsiv sabablar mavjud ijtimoiy me'yorlar, avvalgi tajribalar, tashqi ahvol, o'z harakatlari orqasida yuz berishi mumkin bo'lgan oqibatlarni hisobga olmagan holda dolzarb ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq. Subyektlardagi g'ayriqonuniy harakatlarining vaziyatli-impulsiv sabablarining yuzaga kelishi va ro'yobga chiqishi ularning xulqini boshqarishning o'tmishdagi tajriba, o'z harakatlarining bashorati va kelib chiqishi mumkin bo'lgan oqibatlari natijasida buzilishiga asoslanadi.

Anetik sabablar ma'naviy-etik va huquqiy me'yorlarga, ya'ni axloqni tartibga solishning eng yuqori darajasida faoliyat vositachiligining buzilishini bildiradi. Mazkur sabablarga ko'ra sodir etilayotgan ko'pgina jinoyatlar, masalan, odam o'ldirish, unga tayyorgarlik ko'rish va kelgusida izlarni yashirish bilan amalga oshirishning turli bosqichlarida barcha harakatlar va operatsiyalar o'ylangan hamda puxta rejalashtirilgan xususiyatga ega bo'ladi.

«Surrogat» sabablar biologik o'xshash bo'lmagan yoki mavjud ijtimoiy me'yorlar tomonidan taqiqlanadigan, jinoyatchi uchun qo'zg'atuvchi va mazmun hosil qiluvchi funksiyaga ega bo'lgan: jinsiy perversiyalar, nekrofil, gomoseksual axloq, pedofil, piromaniya (olov yoqishga moyillik), dromomaniya (daydilikka moyillik) va hokazo obyektlarda ehtiyojlarni ro'yobga chiqarish bo'yicha jinoiy harakat- larni bajarish bilan aloqadordir.

Psixopatik xulq – shaxsning ma'lum xislatlari, masalan, ro'yobga chiqarishga intilish axloqning sababi hisoblanib, tajovuzkorlik yoki gumonsirashni qo'zg'atuvchi kuchga ega bo'ladi.

Suggestiv sabablar guruh rahnamolari suggestiv obro'- e'tiborining ishontiruvchi ta'siri yoki guruh ichidagi axloqiy muhit dinamikasi bilan belgilanadi.

Psixologiyada, afsuski, bugungi kunda aksentuatsiyalarning rivojlanishi va dinamikasi bilan bog'liq muammolar hali etarlicha o'rganilmagan. Ushbu sohaning rivojlanishiga eng katta hissa qo'shgan A.E.Lichko, aksentuatsiya turlarining dinamikasida quyidagi bosqichlarni ta'kidlagan (bosqichlarda):

- odamda aksentuatsiyalarning shakllanishi va ularning xususiyatlarining keskinlashishi (bu balog'at yoshida sodir bo'ladi), keyinchalik ularni tekislash va kompensatsiya qilish mumkin (aniq ta'kidlar yashirin bilan almashtiriladi);
- yashirin aksentuatsiyalar bilan ma'lum bir urg'u berilgan tipdagi xususiyatlar travmatik omillar ta'sirida ochib beriladi (zarba o'sha joyning eng zaif tomoniga, ya'ni eng kam qarshilik kuzatilgan joyda qo'llaniladi);
- ma'lum bir aksentuatsiya fonida ba'zi qonunbuzarliklar va og'ishlar sodir bo'ladi (deviant xatti-harakatlar, nevroz, o'tkir affektiv reaktsiya va boshqalar);
- aksentuatsiya turlari atrof-muhit ta'siri ostida yoki konstitutsiyaviy ravishda yaratilgan mexanizmlar tufayli ma'lum bir o'zgarishlarga uchraydi;

Xarakter va psixopatiyaning aksentuatsiyasi shaxsning xarakterini aksentuatsiyasini normaning chegarasi sifatida patologiyadan ajratish uchun maxsus mezon mavjud. Ularning faqat uchta bor:

1. Agar xarakter barqaror bo'lsa va hayot davomida deyarli o'zgarmasa, patologik deb nomlanadi.

2. Xarakterning salbiy namoyon bo'lish darajasi ham tashxis qo'yish uchun juda muhimdir. Agar odamda psixopatiya bo'lsa, unda xuddi shunday salbiy xususiyatlar u hamma joyda, ishda va uyda, yaqin atrofda va begonalar orasida namoyon bo'ladi. Agar inson sharoitga

qarab o'zgarib tursa, demak biz xarakter aksentuatsiyasining xususiyatlari haqida alohida gaplashamiz.

3. Eng ajoyib belgi - bu insonning o'zi va uning atrofidagilarning xarakteri tufayli qiyinchiliklarning paydo bo'lishi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida o'smirlar xulq-atvorida uchraydigan jinoyat motivlari va boshqa salbiy o'zgarishlarga zamin yaratuvchi shartsharoitlarni aniqlash bilan bir qatorda ota-ona, murabbiy-o'qituvchi, profilaktika inspektori, diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha mahalla maslahatchilari bilan barkamol yoshlarni tarbiyalash uchun yaqindan hamkorlik o'rnatish zarurat ekanligi aniqlandi. Axloqiy-ma'naviy tarbiyaga xos ustuvor vazifalarni izchil va og'ishmay amalga oshirish bilangina o'smirlarda shakllanish ehtimoli bo'lgan jinoyat motivlari va jinoiy xatti-harakatlarni oldini olish mumkin. Zamonaviy o'smirlar xulq-atvorining standart andozasini yaratish, unda o'smirlar jismoniy va psixologik rivojlanishining yoshga xos xamda gender xususiyatlarini, shuningdek, ular taraqqiyotini ta'minlovchi muhim tabiiy-iqtisodiy, bio-fiziologik, ijtimoiy-hududiy, milliy-madaniy, tarbiyaviy-psixologik omillar ta'sirini e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir.

Bunday psixologik jarayonlarning xarakterdagi o'zgarishlarni oldini oish uchun eng birinchi navbatda ularga to'g'ri munosabat va o'smirlik davrida yuzaga keladigan krizis davrlarini to'g'ri tushunib ota ona va tarbiyachi murabiylar ularga yuqori bosim bermasdan muomila qilish kerakligi va muloqotga bo'lgan extyojlarini qondirishi ular bilan sammimiy oxangda gaplashish dardlarini tinglash orqali ularning ong ostida to'plangan dardlarini yuqoriga chiqarib salbiy qoniqmaslik xislari norozchilik ularda shakilanadigan deviant xulq atvorni oldini olish yaxshi samara beradi.

FOYDALANILGAN ADABYOTLAR:

1. Яковлев А.М. Преступность и социальная психология. М., 2003.
2. Комилова Н.Ф. Хулқи оғишган болалар психологияси: Услубий қўлланма. – Т., 2008
3. O'smirlar deviant xatti-harakatining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Yu.Asadov, R.Musurmanov Toshkent 2011
4. Odilboyevich, J. X. (2024). Yuridik Faoliyatda Psixologik Ta'sir Etish Va Jinoyatchi Shaxsning Psixologik Xususiyatlarini Aniqlash. Journal of Research in Innovative Teaching and Inclusive Learning, 2(2), 7-10
5. ПСИХОЛОГИЯ ХАРАКТЕРА Учебное пособие Марина Валерьевна Шамардина, Ирина Александровна Ральникова, Елена Анатольевна Петухова Барнаул 2020
6. Jurayev, X. O. (2023). O 'SPIRINLIK YOSHIDA SHAXSDA STRESSLI VAZIYATLARDA INDIVIDUAL KOPING STRATEGIYALARNING O 'RNI VA AXAMIYATI. Educational Research in Universal Sciences, 2(4), 512-515.
7. Odilboyevich, J. X. (2024). Psychological Description of Teenage Outlaws in Interpersonal Relationships. Journal of Preschool Education and Psychology Research, 1(1), 20-22.
8. Қаюмов, Б. З. Ў., & Абдурахмонов, О. А. Ў. (2021). ТАЛАБАЛАРДА ШАХСИЙ ВА ИНТЕЛЛЕКТУАЛ ФАЗИЛАТЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМЛАРИ. Scientific progress, 1(6), 750-754.

9. Baxtiyor, Q. (2023). O 'SMIR SHAXSIDA KREATIVLIKNI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM TIZIMINING O 'RNI. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 178-183.
10. Baxtiyor, Q. (2024). CREATIVITY AS A RESEARCH SUBJECT IN PSYCHOLOGICAL RESEARCH. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 4(07), 76-80.